

**SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA MALINA O'SIMLIGI
NEMATODALARINING FAUNISTIK TAHLILI**

Aslanova Muxataram Akbarovna

*S.H.Sirojiddinov nomidagi
respublika akademik litseyining
oliy toifali biologiya fani o'qituvchisi
Tel: +9989740000504*

Mo'minova Rayxona Gadoyevna

*S.H.Sirojiddinov nomidagi
respublika akademik litseyining
oliy toifali biologiya fani o'qituvchisi
Tel: +998946991879*

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonning Surxondaryo viloyati sharoitida malina o'simligi ildiz sistemasi va ildiz atrofidagi tuproqda uchrovchi nematodalar faunasi tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida malina o'simligi ildiz sistemasi va ildiz atrofidagi tuproqda 2 ta kenja sinf, 5 ta turkum, 9 ta kenja turkum, 10 ta katta oila, 13 ta oila, 14 ta kenja oila, 20 avlodga mansub 34 ta tur nematodalar aniqlandi.

Kalit so'zlar: fitonematodalar, malina, parazitlar, sistematik, fauna, ildiz, ildiz atrofidagi tuproq.

Kirish. Hozirgi vaqtda aholi sonining ortishi oziq-ovqat mahsulotlari, shu jumladan sabzavot va ho'l mevalarga nisbatan ehtiyojning ortishiga ham sabab bo'lmoqda. Meva va sabzavotlar ovqat ratsionimizning eng asosiy qismi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF36-son “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha choratadbirlari to'g'risida” gi [1]farmonining 1-ilovasida “ Oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanishni ta'minlashning strategik maqsadi — mamlakat aholisini yetarli hajmda xavfsiz, sifatli va arzon qishloq xo'jaligi mahsulotlari hamda hozirgi va istiqboldagi iste'mol ehtiyojlari va ratsion me'yorlari darajasida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, shuningdek, aholi o'rtasida sog'lom ovqatlanishni targ'ib qilishdan iborat.” deb takidlangan, va aholini xavfsiz, sifatli va arzon qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash hamda to'yingan yog'li mahsulotlar, osh tuzi, shakar va yog'li mahsulotlarning o'rnini bosuvchi kerakli mikromakroelementlar va oqsilga boy mahsulotlarning (meva-sabzavot, dukkakli, rezavor, baliq, sutli mahsulotlar, asal va boshqalar) iste'molini oshirishni targ'ib qilish uchun zarur bo'lgan kerakli chora-tadbirlar belgilab qo'yilgan. Aholini sonining ortishi bilan meva-sabzavot, rezavor mevalarga, jumladan malina mahsulotlariga bo'lgan talab ham ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi sharoitida turli-tuman madaniy ekinlar yetishtiriladigan agrotsenozlarda o'simliklarning nematodafaunalari ma'lum darajada o'rganilgan. Lekin Surxondaryo sharoitida malina o'simligi fitonematodalar tarkibi va ularning tarqalish xususiyatlari deyarli o'rganilmagan holda qolib kelmoqda. Shu uchun ushbu muammo bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarni amalga oshirmoqdamiz.

Tadqiqot materiali va metodlari. Malina o'simligi namunalari Jarqo'rg'on tumani Oqtepa hududidan 200 ta tuproq va 50 ta o'simlik ildizi qismidan namuna olib kelindi. O'simlikning ildizi va ildiz atrofidagi tuproqdan fitonematodalarni ajaratib olish uchun Bermanning varonkali metodidan foydalandik. Doimiy preparat tayyorlash uchun Saynvorst metodidan [2] foydalandik. Fitonematodalarning turlarini, jinsini aniqlashda N-300M Trinokulyar mikroskopidan, shuningdek, nematodalar aniqlagichlari va atlaslardan foydalanildi.

Preparatlardagi nematodalarning o'lchamini o'lchashda ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan qabul qilingan, Mikoletzkiy tomonidan qayta ishlangan De Man [3] formulasidan foydalanildi. Biz o'z ishimizda rus nematolog olimlari V.V. Malaxov, K.M. Rijikov, M.D. Soninlar [4] tomonidan ishlab chiqilgan nematodalar sistemasidan foydalandik.

1-jadval

Malina o'simligi ildizi va uning ildiz atrofidagi tuproqda fitonematodalarning taqsimlanishi

№	Turlar	Individlar soni				%
		Ildiz atrofidagi tuproqda	Ildiz	Poyabarg	Jami	
1	<i>Mononchus truncatus</i>	38	14	-	52	4,6
2	<i>Clarcus . parvus</i>	42	19	-	61	5,4
3	<i>Mylonchulus parabrachyurus</i>	34	12	-	46	4
4	<i>Mesodorylaimus bastiani</i>	31	14	-	45	3,9
5	<i>Eudorylaimus centrocerus</i>	24	8	-	32	2,8
6	<i>E. kirjanovae</i>	7	4	-	11	0,97
7	<i>E. monohystera</i>	5	2	-	7	0,6
8	<i>E. paraobtusicaudatus</i>	40	9	-	49	4,3
9	<i>E. parvus</i>	7	3	-	10	0,9
10	<i>Aporcelaimellus abtusicaudatus</i>	42	12	-	54	4,8
11	<i>Diphtherophora communis</i>	5	3	-	8	0,7
12	<i>D. kirjanovae</i>	5	2	-	7	0,6
13	<i>Anaplectus granulosus</i>	7	3	-	10	0,9
14	<i>Plectus cirratus</i>	8	3	-	11	0,97

15	<i>P. parietinus</i>	5	2	-	7	0,6
16	<i>Proteroplectus parvus</i>	6	3	-	9	0,8
17	<i>Prismatolaimus intermedius</i>	27	15	-	42	3,7
18	<i>Rhabditis brevispina</i>	8	5	-	13	1,2
19	<i>Rh. filiformis</i>	48	17	-	65	5,7
20	<i>Mesodiplogaster lheritieri</i>	46	19	-	65	5,7
21	<i>Panagrolaimus armatus</i>	48	15	-	63	5,56
22	<i>P. multidentatus</i>	36	14	-	50	4,4
23	<i>Heterocephalobus elongatus</i>	30	12	-	52	4,6
24	<i>H. filiformis</i>	34	12	-	46	4
25	<i>Cephalobus persegnis</i>	21	8	-	29	2,6
26	<i>Eucephalobus cornis</i>	24	7	-	31	2,7
27	<i>E. oxyuroides</i>	26	8	-	34	3
28	<i>E. striatus</i>	19	-	-	19	1,7
29	<i>Acrobeloides. emarginatus</i>	11	5	-	16	1,4
30	<i>Chiloplacus. lentus</i>	16	5	-	21	1,9
31	<i>Ch. propinquus</i>	34	11	-	45	3,9
32	<i>Ch. symmetricus</i>	45	23	-	68	6
33	<i>Diphtherophora communis</i>	42	11	-	53	4,7
34	<i>A. cylindricauidatus</i>	16	5	-	21	1,9
	Jami:	827	305	-	1132	100 %

Malina o'simligi poya-barg, ildiz va ildiz atrofida tuproqdan 34 turga mansub 1132 ta individ topilgan bo'lib, ular orasida eudominant turlar topilmadi. 5 turga mansub nematodalar: *Clarcus parvus*, *Rh. Filiformis*, *Mesodiplogaster lheritieri*, *Panagrolaimus armatus*, *Ch. symmetricus* dominant turlardir.

15 turga mansub nematodalar *Mononchus truncates*, *Mylonchulus parabrachyurus*, *Mesodorylaimus bastiani*, *Eudorylaimus centrocerus*, *E. Paraobtusicaudatus*, *Aporcelaimellus abtusicaudatus*, *Prismatolaimus intermedius*, *P. multidentatus*, *Heterocephalobus elongates*, *H. Filiformis*,

Cephalobus persegnis, *Eucephalobus cornis*, *E. oxyuroides*, *Ch. Propinquus*, *Diphtherophora communis* subdominantlar turlardir.

5 turga mansub nematodalar *Rhabditis brevispina*, *E. striatus*, *Acrobeloides. Emarginatus*, *Chiloplacus lentus*, *A. cylindricauidatus* retsedent turlardir.

9 turga mansub nematodalar *E. Kirjanovae*, *E. Monohystera*, *E. parvus*, *Diphtherophora communis*, *D. Kirjanovae*, *Anaplectus granulosis*, *Plectus cirratus*, *P. parietinus*, *Proteroplectus parvus* subretsedent turlardir.

Xulosalar: Topilgan fitonematodalar tuproqda 2 ta kenja sinf, 5 ta turkum, 9 ta kenja turkum, 10 ta katta oila, 13 ta oila, 14 ta kenja oila, 20 avlodga mansub 34 ta turga taalluqlidir.

Aniqlangan turlar individlar soni jihatidan eng ko'p individ *Chiloplacus symmetricus* 68 ta individ, eng kam individ *Plectus parietinus* 7 ta individ uchrashi qayd etildi.